

## YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA CHET TILI O'QITISHNING MUHIM JIHATLARI

*O`zDJTU o`qituvchi - Tashniyozova Sh.X.*

**Annotatsiya:** Maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda chet tili o'qitishning muhim jihatlari, o'qitishning zamonaviy metodlari, til materiallari, nutq faoliyati turlari va ularning chet tillarni o'qitish jarayonidagi o'rni, ahamiyati va turlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq kompetentsiyalari, chet tili, fonetika, leksika, masofali o'qitish, jarayon, malaka, metodlar, ta'lif jarayoni, grammatika, yozuv, nutq.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqtি-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat quzishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim», deydi. O'zbekiston va Ispaniya munosabatlari rivojlanib borayotgan ayni damda ispan tilini o'rganishni xohlovchi o'quvchilarining soni ham tobora ko'payib bormoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda ispan tilini o'qitadigan ta'lim muassasalarining ortib borishligiga sabab bo'ladi. Shunday ekan o'z-o'zidan bu o'quv maskanlariga nafaqat ispan tilini chuqur biladigan, balki ilg'or o'qitish metodikasiga ega, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan yaxshi tanish bo'lgan, hamda darslarda zamonaviy interfaol usullarni qo'llay oladigan tajribali pedagog kadrlarni yetkazib berish ham hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik sohalardagi tub islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lif-tarbiya jarayonlarini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil qilish, o'tkazish erkin shaxsni tarbiyalash muammosi bilan chambarchas bog'liq. Bu pedagogik voqelik oson kechmaydi: bugun ixtiyoriy tarzda qurilayotgan va amaliyotga tatbiq etilayotgan o'qitish tizimini qat'iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish lozim. Aslida ham ijtimoiy tajriba elementlari - bilim, ko'nikma va malaka, ijodiy faoliyat tajribalari – ma'lum pedagogik tizim doirasida kechadigan pedagogik jarayon mahsulidir. Ana shu jarayonni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhi bilan sug'orish – mazmunini takomillashtirish ijodkor o'qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. O'quv dasturida fanni o'qitishdan maqsad quyidagicha izohlanadi: ispan tilining fonetik, leksik, va grammatik xususiyatlari xususida ta'lim yo'nalishi profiliga mos ravishda bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish, ispan tilini

o‘qitishning asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lib qolayotgan zamonaviy ispan tili xususiyatlari va og‘zaki til elementlari, fonetikasi, grammatikasi sohasini o‘zlashtirgan filologlarni tayyorlashdan iborat.

Lingvistika va xorij tillarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha yetuk mutaxassis S.G. Ter-Minasovaning fikricha, “Bugungi kunda tilni o‘qitish funksionallashib, integrasiya jarayonlarining kuchayishi natijasida chet tillarni o‘rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ammo zamonaviy til o‘rganuvchilarni tilning tarixi yoki uning nazariyasi qiziqtirmaydi. Chet tili ular uchun hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lib qoldi”. Ta’lim sifatini oshirish masalasi barchaning diqqat markazida turgan holda turli axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib masofali o‘qitish, har bir fanning metodikasidan kelib chiqib, dars jarayonini yangicha usul va vositalar asosida, interaktiv pedagogik usullaridan keng foydalangan holda tashkil etish oldimizga qo‘ygan buyuk maqsad – mustaqil fikrlovchi, barkamol shaxsni voyaga yetkazish yo‘lida muhim omil deb qaralmoqda. Pedagogik innovatsiyalarning maqsad va vazifalari shundan iboratki, bugungi kunda nihoyatda keng va tezkor axborotlar, innovatsion jarayonlar avlodi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda an‘anaviy yondashuvni o‘zgartirish taqozo etilmoqda. Dars jarayonida o‘qituvchi-talaba pozitsiyalarini o‘zgartirish, o‘qituvchining mutlaq faolligidan voz kechish, talabaning mustaqil fikrlashiga imkon berish, uni har bir mavzu yuzasidan beriladigan ma’lumotlarni o‘zlashtirish, qiyoslash, tahlil qilish va tatbiq etish darajasiga yetkazishga qaratilgan usullarni ishlab chiqish kun talabiga aylangan.

Ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsni didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqidir. O‘qitishning zamonaviy metodlarining afzalliklariga fanlararo bog‘liqlik madaniy aspektlardan xabardorlik, til kompetentligi, o‘rgangan bilimlarni real hayotda qo‘llashga tayyor bo‘lish, hayotga qiziqish va omad sari intilish kiradi. Metodlar tarixi atoqli metodist professor I.V. Raxmonov tomonidan chuqur o‘rganilgan. Biz bilamizki, hozirgi ta’lim jarayonida o‘quvchi subyekt bo‘lishi lozim. Bunda ko’proq interfaol metodlarga, interfaol o‘yinlarga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda ta’lim jarayonoda interfaol o‘yinlar orqali dars o’tish an‘anaga aylanib bormoqda. Darslarni turli xil o‘yinlar asosida o’tilishi o‘quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko’nikmalarini oshirish va kuchli bo‘lishlarini ta’minlaydi. O‘yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o‘quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Har qanday o‘yin zamirida umumiyl qabul qilingan ta’lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O‘quv o‘yinlariga o‘quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg’ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko’rsatadi.

O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi ispancha tilida gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Ispan tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o'quvchi talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

Chet tillarini o'rganish jarayoni nutqning barcha turlarini, ya'ni yozish, o'qish, tinglab tushunish va so'zlashish malakalarini puxta egallashni nazarda tutadi. Har bir nutq turi o'z o'rni va vazifasidan kelib chiqib, chet tildagi bilimlarni shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan chet tilida nutqfaoliyati turlari bo'yicha malakalarini shakllantirish va takomillashtirish masalasi zamonaviy til ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi. Fan bo'yicha talabalarning malakasiga qo'yiladigan talablarga diqqat qilsak, quyidagi holat kuzatiladi: tinglab tushuna olish: - talabalar kundalik, ijtimoiy, ta'limiy yo'nalishdagi mavzularni, adabiy til me'yorlari doirasidagi og'zaki nutq yoki diskлага yozilgan matnlarni, shuningdek, o'quvchiga oldindan ma'lum yoki ma'lum bo'lmagan mavzularni tarkibida idiomatik birliklar bo'lishiga qaramasdan tushuna olishi; - o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchi kishilarning fikrlarini erkin tushunishlari; - ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etiladigan yangiliklar, joriy voqeа va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy qismini tushina olishlari; - hujjatli filmlar, jonli muloqot, tok-shou, spektakllar va badiiy film qahramonlari adabiy me'yorda so'zlashayotgan bo'lsalar, ularning ma'nolarini to'liq tushuna olishlari kerak.

- gapira olish: dialog. Turli xil mavzularda tayyorgarliksiz, tez va grammatik xatolarga yo'l qo'ymasdan, vaziyatga ko'ra gapira olishlari, bemalol va erkin ravishda oldindan belgilab berilgan savollardan chetga chiqib, kerakli o'rinnarda fikr aytib, suhbat qura olishlari kerak. Kasbiy-kommunikativ holatlarga asoslangan, ma'lum bosqichiga mo'ljallangan erkin va me'yoriy dialoglarda qatnashishi. Monolog. Mutaxassisligi bo'yicha aniq, tez va bataysil axborot berishni, tavsiflashni, aniq va mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan tafsilotlari bilan, eshituvchilarga tushunarli bo'ladigan darajadagi ma'ruza qila olish salohiyatiga ega bo'lishi kerak; - kasbiy yo'nalish bo'yicha barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan har qanday monologni tuza olishi; - tayyorgarliksiz ma'ruza matnidan chetga chiqqan holda, fikr-mulohazalar bildirgan tinglovchilarning fikrlarini rivojlantira olishi hamda o'z fikrlarini oson va qulay shaklda ifoda eta olishini namoyish qilishi kerak.

- o'qish: - Murakkab bo'lgan matnni ko'zdan kechirib undagi o'ziga kerakli muhim ma'lumotlarni ajrata bilishi; - turli janrlardagi kasbga oid matnlarni tushunish (ilmiy maqolalar, zamonaviy muammolar bo'yicha ma'lumotlar) va muayyan o'qish bosqichiga asoslangan nutq ko'nikmalariga mos bo'lgan matnlarni o'rganish hamda zamonaviy badiiy nasrni tushunish.

- yozish: Kasbga oid bo‘lgan manbalarni eshitib annotatsiyalar yozish; elektron va rasmiy xatlar, ma’ruzalar, tezislar yoki turli referatlar yozish hamda mutaxassislik bo‘yicha asosiy ish hujjatlarni tuza olishi kerak bo‘ladi.

Shuningdek quvchi talaba quyidagi til materiallari ya`ni: grammatik, fonetik va leksik bilimlar malakasiga ham ega bo‘lishi kerak bo‘ladi: Nutqning fonetik jihatlari - talaffuz ko‘nikmasi va malakasini egallashi va rivojlantirishi; ma’lum o‘quv bosqichidagi turli kommunikativ holatlarni bayon eta olishi. Nutqning leksik jihatlari, ma’lum o‘quv bosqichida turli muloqot uchastkasi doirasidagi kasbga yo‘naltirilgan kommunikativ so‘z qatlamini o‘zlashtirish. Nutqning grammatik jihatlari-ma’lum o‘quv bosqichiga asoslangan turli kommunikativ holatlar doirasidagi mavzuga oid konstruksiylar va bir-biriga bog‘liq xususiyatlarini egallashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’limni tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish uchun, ispan tili darslarida o‘qitishning zamonaviy metodlarni, innovatsion usullarni interfaol metodlar va o‘yinlarni qo’llashning afzalliklari o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatları, nutqi ravojlanadi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg’otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi. Bu esa o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol subyektlariga aylantiradi. Biz yangi, zamonaviy davlat qurishni istasak, davlatlararo yaqin munosabatlarni o‘rnatishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Bu borada ayni tayanch bo‘ladigan chet tili sohasiga yangi o‘zgartirishlar kiritilishi, chet tilini o‘qitish metodlarini jahon standartlari asosida yo‘lga qo‘yilishi va yangi innovasion g‘oyalarni qo‘rmasdan davlat ta’lim muassasalarida tadbiq qilinishi ustuvor maqsad bo‘lishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:**

1. J.Yo’ldoshev Yangi pedagogik texnologiya/ Xalq ta’limi. 1999, 4-soni. 8-bet.
2. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: Учеб. пособие для студентов, аспирантов и соискателей по спец. "Лингвистика и межкультурная коммуникация". М., 2000. 262 с.
3. Авлиякулова Н.Х. Замонавий ўқитиш технологиялари. Ўқув қўлланма.-Т: 2001.-68б.
3. Jalolov. J Chet tilini o‘qitish metodikasi- Toshkent. “O‘qituvchi nashriyoti” 1996-yil.
5. M. P. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M. P. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37.